

## FORMATION OF INNOVATION THEORIES IN AGRICULTURE

Abbasov Farux

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

### ABSTRACT

This article is written about innovations, which are always in the focus of attention of researchers, their formation, the possibilities of applying innovations in agriculture, ways to introduce innovations into production, types of followers of innovations.

**Keywords:** innovations, innovations in agriculture, innovation theories.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье написано об инновациях, которые всегда находятся в центре внимания исследователей, их формировании, возможностях применения инноваций в сельском хозяйстве, способах внедрения инноваций в производство, типах последователей инноваций.

**Ключевые слова:** инновации, инновации в сельском хозяйстве, инновационные теории.

### ANNOTASIYA

Mazkur maqolada doimo tadqiqotchilar diqqat markazida turgan innovatsiya, uning shakllanishi, qishloq xo'jaligida innovatsiyani qo'llash imkoniyatlari, innovatsiyani ishlab chiqarishga joriy qilish yo'llari, innovatsiyani qabul qiluvchilarning turlari haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, qishloq xo'jaligida innovatsiya, innovatsiya nazariyalar.

### KIRISH

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish intensiv va ekstensiv omillardan tashqari innovatsiyaga ham bog'liq. Innovatsiya, uning rivojlanishi doimo tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otib keladi. Innovatsiyadan foydalanish xarajatlarni keskin kamaytirib, samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi Y.A.Shumpeter hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra aynan ushbu olim birinchi bor innovatsiya tushunchasini ilmiy asoslab bergan. Y.A.Shumpeter ilgari surgan g'oyaga ko'ra, joriy etilgan har qanday yangi texnik qaror, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarning tarkib topishi, xom-ashyolar manbai innovatsiya hisoblanadi.

**Materiallar va metodlar.** Maqolani tayyorlash davomida tadqiqot materiallari, milliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy ishlari natijalari an foydalanildi. Asosiy materiallar statistik ma'lumotlar asosida to'plangan. Olingan ilmiy xulosalar ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan.

**Natijalar va ularning tahlili.** Innovation soʻzi inglizcha boʻlib, yangilikning kiritilishi degan maʼnoni anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda I.A.Shumpeter tomonidan berilgan konsepsiyasiga asoslanadi:

innovatsiya - uning tadbirkorlik faoliyatida ilk bor qoʻllanilish;

diffuziya - innovatsiyaning keng tarqalishi.

Xalqaro amaliyotda innovatsiya:

birinchidan ilmiy-texnik natijasi;

ikkinchidan yangi usullar, tashkiliy-boshqaruv shakllari, texnologiya, texnikani yaratish va uni joriy etish;

uchinchidan, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarini tashkil etish tushuniladi.

Innovatsiya jarayoni dastlabki yondoshuvlarda ijodiy faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan jarayon deb qaralgan va irratsional hamda tashkil etilmagan faqat modelda oʻz ifodasini topishi mumkin boʻlgan «qora yashik» deb tushunilgan.

Keyinchalik u yoki bu sohaga ixtisoslashgan korxonalar faoliyatining innovatsion modeli, innovatsiya jarayoni ishtirokchilarining ishonchli faoliyati makro va mikroiqtisodiy sharoitga bogʻliqligi namoyon boʻla boshladi. Innovatsiya jarayonining bir nechta modeli mavjud boʻlib, ularning har biri korxonalar strategiyasining oʻziga xos jihatlari, oʻz hayoliy davrining asosiy makroiqtisodiy sharoiti bilan ajralib turadi.

Chiziqli (birinchi) model 60-chi yillarning oʻrtalarida qoʻllanilgan boʻlib, unda texnologiyaga ustuvor taʼsir etish (technology/science push) asosida innovatsiya jarayoni shakllandi. Innovatsiya gʻoyasi ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari zaminida paydo boʻladi, ushbu jarayonda bozor sust rol oʻynaydi degan gʻoya mavjud boʻlgan. 60-yillarning oʻrtalariga kelib bozorga taʼsiri ustuvor (market/heed pull) deb tan olingan chiziqli model keng tarqala boshladi. Ushbu modelga koʻra ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari va texnologik ishlanma mazkur holatda bozor talabi hisoblanadi.

XX asrning 70-yillariga kelib texnologiya va bozorni oʻzida mujassamlashtirgan yangi innovatsiya jarayonining chiziqsiz modeli paydo boʻldi. Ushbu model orqali innovatsiya jarayonining izchilligi, xarakteri, uning teskari aloqasi oʻz ifodasini topadi.

Ushbu model ikkita strategik yoʻnalishni: mahsulotga talabning oʻsishini, fan va texnikaning bozorda yangi mahsulotlarga va texnologiyaga boʻlgan talabga mos ravishda rivoj topishini oʻzida aks ettiradi. Korxonalar faoliyatining ushbu ikkita mustaqil yoʻnalishida uchta oʻzaro bir-biri bilan bogʻliq taʼsirni koʻrish mumkin. Birinchisi konseptual qarorlar qabul qilish (bozorda qondirilmagan ehtiyojni, tadbirkorlikning yangi modelini, moliyaviy va boshqa omillarni hisobga oldan holda); ikkinchisi, yangi texnologik qarorlarni ishlab chiqish (texnik vositalar, uskunalalar, texnologik jarayon, xodimlarni tayyorlashni hisobga olgan holda); uchinchisi, innovatsion texnologiyani joriy etish.

Korxonadagi innovatsiya jarayoni zamonaviy modelga mos ravishda boshqarishning funksionalaro jarayoni boʻlib, mult institutsional tur koʻrinishiga ega boʻladi. Qishloq xoʻjaligida innovatsiyadan foydalanishda aviatsiya, zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib

kelinmoqda. Qishloq xo'jaligida texnik ishlarini bajarishda texnikalarning innovatsiya yutuqlaridan foydalanish hozirda keng tarqalgan bo'lib, mamlakatimizda ham ushbu



yutuqlardan foydalanishga o'tishni jadallashtirish kerak (1-rasm).

1-rasm. Qishloq xo'jaligida innovatsiyadan foydalanish

### XULOSALAR

Qishloq xo'jaligida innovatsiyalardan foydalanish yuqori samara berishini inobatga olgan holda, innovatsiyalardan foydalanishni jadallashtirish maqsadga muvofiq.

Istiqbolda korxonalarining innovatsion yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi lozim:

innovatsion jarayonlarni boshqarishning yangi usullari va yondoshuvlari asosida innovatsiyani joriy etish mexanizmlarini takomillashtirib borish;

iqtisodiyotning muhim tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga qaratilgan loyihalar uchun katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish va yangi mahsulotlarni yaratish;

innovatsiya davrining barcha bosqichlari bo'yicha ishlab chiqarish - tadbirkorlik faoliyatini jadallashtirish;

korxonalarining barcha ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyati yo'nalishlarida axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Savenko V.G. “Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni rivojlantirish tizimini shakllantirish” Nazariy, metodika, amaliyot: dissertatsiya. Iqtisod fanlari doktori: 08.00.05. Moskva, 2005. - 338 betlar.
2. Ushachev I.G. Rossiya iqtisodiyotining agrar sektoridagi innovatsion faoliyat / Ed. I. G. Ushacheva, I. T. Trubilina, E. S. Ogloblina, I. S. Sandu. M.: Kolos, 2007. 350 bet.
3. Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jami-yati nashriyoti, 2008. — 144 b.
4. Taraxtiyeva G.K. Innovatsion menejment. -T.: Fan va texnologiya, 2013. -208 b.
5. Michailidis A. Farmers' typology, based on their innovative behavior. –T.: TSAU, 2016.
6. Ergashev R.X. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari. //Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Mualliflar jamoasi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.